

## **Harbiy kafedra talabalari bilan uchrashuv**

2019 yil 24 iyun kuni “Suv xo’jaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasи professor-o’qituvchilari TIQXMMI qoshidagi Harbiy kafedra talabalari bilan uchrashuv tashkil etildi. U “O’zbekiston Respublikasida harbiy sanoat potensiali” mavzusidagi davra suhbatи tarzida o’tkazildi. Davra suhbatida kafedra mudiri Sh. Xodjimuhamedova va katta o’qituvchi I. Yuldashevalar so’zga chiqib, O’zbekiston Respublikasida harbiy sanoatning potensialini yanada rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan qabul qilingan mudofaa sanoat kompleksini rivojlantirish jamg’armasi mablag’larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to’g’risidagi Nizomi haqida tushunchalar berib o’tdilar. Davra suhbatи qizg’in savol-javoblar asosiga qurildi.



**SXTE va B fakulteti dekani o’rinbosari J.Turdiev axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**